| № | Yo'nalish kodi | Ta'lim yo'nalishi nomi | Kunuzgi | Sirtqi | Egallaydigan kasbi |
|---|---|---|---|---|---|
| 12 | 60720700 | Texnologik mashinalar va jihozlar (tarmoqlar bo‘yicha) | + | + | Muxandis-mexanik |
| Yo‘nalish tavsifi | | | | | |
| Texnologik mashinalar va jihozlar (sovutish mashinasozligi) bakalavriat ta'lim yo‘nalishi – fan, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, sovutish tizimlaridagi ishchi jarayonlar nazariyasini o‘zlashtirish va tadqiq qilish, sovutish, kriogen texnikasi, issiqlik va modda almashinish tizimlarini loyihalash, ularga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni diagnostika qilish, sinash va ekspluatasiya qilish hamda ularga ishlatiladigan materiallardan samarali foydalanishni ta'minlash bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.<br>Ta'lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:<br>- sovutish, kriogen mashinalari va havo kondisionerlarini ekspluatasiya qilish;<br>- texnologik mashina va jihozlardan xavfsiz va samarali foydalanish;<br>- sovutish, kriogen texnikasi mashina hamda qurilmalari va havo kondisionerlariga texnik xizmat ko‘rsatish;<br>- sovutish, kriogen texnikasiga tegishli ishchi jarayon, sikllarni, mashina va apparatlarni tadqiq qilish;<br>- sovutish, kriogen texnikasi mashina va apparatlarni loyihalash, konstruksiyalash;<br>- sovutish, kriogen mashinalari va havo kondisionerlarini ishlab chiqarish. | | | | | |